

## 6.4. AMALIY MASHG'ULOT


### FOTOSINTEZ VA NAFAS OLISH JARAYONLARINI TAQQOSLASH

**Maqsad:** fotosintez va nafas olish jarayonlarini taqqoslab o'rganish.

**Bizga kerak:** fotosintez va nafas olish jarayonlari aks etgan rasm, karton va rangli qog'oz, chizg'ich, yelim, qaychi.

**Ishni bajarish tartibi:**

1. Rasm asosida fotosintez va nafas olish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini tushuntiring.
2. Fotosintez va nafas olish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi model yasang.




O'simliklarda fotosintez va nafas olish jarayoni.

3. Fotosintez va nafas olish jarayonlarini taqqoslang.

| Taqqoslanadigan jihatlar              | Fotosintez | Nafas olish |
|---------------------------------------|------------|-------------|
| Mohiyati                              |            |             |
| Kislorod                              |            |             |
| Karbonat angidrid                     |            |             |
| Organik modda                         |            |             |
| Sutkaning qaysi vaqtida sodir bo'ladi |            |             |

4. Fotosintez va nafas olish jarayonlarini daftaringizga chizing va so'roq belgilari o'rniga mos ravishda *kislorod*, *karbonat angidrid* so'zlarini yozing.



O'simliklarda fotosintez va nafas olish jarayonida gazlar almashinuvi.

**Muhokama qiling va xulosa chiqaring.**